

## MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNI QO‘LLAB QUVVATLASH VA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

**Mirzabayev Xusniddin Muhamadjonovich**

Namangan muhandislik texnologiya instituti 1-bosqich doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10735238>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tushunchasi iqtisodchi olimlar fikrlari, mintaqa iqtisodiyotida mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish, import o‘rnini bosuvchi maxsulot ishlab chiqarishuvchilarga xukumat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, mahalliyashtirish orqali mahsulot ishlab chiqarishni jamiyat uchun tutgan o‘rni ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahalliyashtirish, raqobatbardosh mahsulot, import o‘rnini bosuvchi mahsulot, eksporga yo‘naltirilgan mahsulot.

### DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PRODUCT PRODUCTION SUPPORT AND LOCALIZATION

**Abstract.** In this article, the concept of localization of production, the opinions of economists, the production of products based on localization in the regional economy, the benefits given by the government to manufacturers of products that replace imports, the role of product production through localization for society are considered.

**Key words:** localization, competitive product, import-substituting product, export-oriented product.

### НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПОДДЕРЖКИ И ЛОКАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИОННОГО ПРОИЗВОДСТВА

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено понятие локализации производства, мнения экономистов, производство продукции на основе локализации в региональной экономике, льготы, предоставляемые государством производителям продукции, замещающей импорт, роль производства продукции посредством локализации для общества считаются.

**Ключевые слова:** локализация, конкурентоспособный товар, импортозамещающий товар, экспортоориентированный товар.

Keyingi yillarda dunyo davlatlari orasida raqobatning keskinlashuvi, xalqaro bozorlarda innovatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga talabning ortishi xususan, jahon bozorlarida fan-texnika sig‘imi yuqori mahsulotlarga ehtiyojning kuchayishi dunyo davlatlarining milliy eksport tarkibida yuqori texnologiyali mahsulotning ulushini ko‘paytirishga bo‘lgan intilishlarini, bu esa milliy iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish zaruriyatini yanada kuchaytirdi.

Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy faoliyat yuritishning barcha muammolari ikki fundamental vazifani xalq etish bilan bog‘lanadi. Insoniyat ehtiyojlarining cheksizligi va uni qondirish hamda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish vazifasi turadi. Har qanday jamiyat cheklangan resurslarni ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasida qay darajada samarali, to‘g‘ri taqsimlash hamda turli ne‘matlarning qancha miqdorda ishlab chiqarishi lozimligini anglashi muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy ne'matlar bir-birini o'rnini to'ldiruvchi ne'matlardir, chunki ularning jami hayot davomiyligi uchun zarur. Ehiyojlar kishilarning yashashi uchun kerak bo'lgan birlamchi zaruriy ne'matlardan (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy) va ikkilamchi xizmatlar (dam olish ehiyojlari, teatr, sport va x.k.)dan iborat bo'ladi. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish uchun iqtisodiy resurslardan foydalaniladi va o'z navbatida ularni ishlatish natijasida tovar va xizmatlar yaratiladi. Shunga ko'ra resurslar moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi.

Mavjud mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, jamiyatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlay olishida sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Bu sharoitida mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini yanada chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishda oziq-ovqat va iste'mol tovarlari hamda talab yuqori bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalliyashtirish dasturi o'z mazmuniga ko'ra korxonalarda zamonaviy talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, imkon qadar import hajmini qisqartirish, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi ish joylarini yaratish kabi maqsadlarni namoyon etadi. Mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish borasida to'plagan tajribalar iqtisodiyotning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, valyuta zaxiralarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, mahalliy iste'mol bozorlarini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, bozordagi zaruriy muvozanatni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, hozirda nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish kabi muammolarni samarali yechishning yetakchi vositalaridan bir bo'lmoqda. Demak, yuqorida nazarda tutilgan jarayonlar mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion tarzda rivojlantirishni talab etmoqda.

“Mahalliyashtirish - (ingliz tilida “localization” lotin tilining “locus” so'zidan olingan bo'lib, “joy, makon” ma'nolarini ifodalaydi) - muayyan bir joyga tegishli bo'lmoq, tarqalib ketishni cheklash, me'yor va chegaralarni qurish” degan ma'noni anglatadi. A.M.Vazyanskiy ishlab chiqarishni mahalliyashtirish haqida quyidagi fikrni bildiradi: “Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish - asl xorijda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni boshqa mamlakat hududida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish jarayoni”[1].

Iqtisodiyotda amalga oshiriladigan tub tarkibiy o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish va rivojlantirish hisoblanadi. Import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltiruvchi ishlab chiqarishni vujudga keltirish uchun quyidagi bosqichlarda ishlar amalga oshiriladi ya'ni, mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokida qo'shma korxonalar yoki sof chet el kapitaliga asoslangan korxonalar tashkil etish asosida yangi turdagi, ilgari mamlakatda bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etiladi. Navbatdagi bosqichda mamlakatda va uning hududlarida mazkur tayyor mahsulotlarning ba'zi butlovchi qismlarini mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarish uchun yangi qo'shma korxonalar, milliy korxonalar tashkil etilib, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Bunday mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilib, tayyor mahsulot tannarxidagi ulushi bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

Ushbu ishlar mehnat taqsimotining rivojlantirilib, chuqurlashtirilib borishi, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirilishi asosida uning kooperatsiyalashuvi, ya'ni sanoat kooperatsiya aloqalarining kengaytirilib borishi yo'li bilan amalga oshiriladi. Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, sanoat kooperatsiyalarining rivojlanishi asosida mamlakat va uning hududlarida raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan yangi ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi jarayonlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish deb atash mumkin.

Mahalliyashtirish dasturlari: o'zining majmuaviyligi va keng qamrovliligi bilan xarakterlanib, unda qisqa va o'rta muddatli davrlarda sanoatni barqaror rivojlantirishning prognoz parametrlari, sanoat tuzilmasini takomillashtirish masalalari, tarmoqlararo kooperatsion aloqalarni yaxshilash va mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyot raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab - quvvatlashni kuchaytirish, biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish hamda eksport faoliyatiga yangi ishtirokchilarni jalb qilish va yangi bozorlarga kirib borish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rilmoqda.

Respublikamizda mahalliyashtirish faoliyati bilan shug'ullanayotgan real sektor vakillariga bir qator imtiyozlar, jumladan, bojxona va soliq imtiyozlari, banklar tomonidan maqsadli kreditlar ajratib kelinmoqda. Jumladan 2024 yil 1 iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalariga, uch yil davomida nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo'lgan barcha xomashyolar mahalliyashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etilishi belgilangan[2].

Import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki ularni mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilishdan asosiy maqsad bu mahsulot tannarxini kamaytirish va valyuta zaxirasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Eksportbop va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan sanoat siyosatini yuritish zarur. Mavjud xomashyo va imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, mahalliyashtirish darajasini chuqurlashtirish va ko'lamini keskin kengaytirish ushbu sanoat siyosatining negizi bo'lishi kerak.

Mahalliyashtirishni qo'llab-quvvatlash masalasi ko'rib chiqilar ekan, bunday loyihalarni amalga oshirishda xukumat tomonidan kafillik berish va kredit foiz stavkasini qisman qoplash tizimidan foydalanish o'z samarasini berib kelmoqda.

Shuningdek, bojxona to'lovlarini 120 kungacha uzaytirib to'lash, ishlab chiqarishni mahalliyashtirgan korxonalarining tayyor mahsulotlarini sertifikatlash va standartlashtirish masalalarida ko'maklashish tadbirkorlarga qo'shimcha imkoniyat mavjudligini bildiradi.

“Davlat xaridlarida mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish va rag‘batlantirish, tashqi savdoni tarif usuli bilan boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ham ustuvor vazifalar belgilandi”. [3]

Hukumat tomonidan yaratib berilgan sharoitlar hisobiga bugungi kunda Namangan viloyatda jami 73 ta kichik sanoat va 2 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, hozirga qadar ushbu sanoat zonalariga qiymati 1,2 mlrd. dollarlik 1 300 tadan ortiq loyihalar joylashtirilgan. Hozirga qadar qiymati 475 mln. dollarlik 835 ta loyihalar ishga tushirilib, 50 mingta yangi ish o‘rinlari yaratildi [4].

Mazkur sanoat zonalariga birinchi navbatda import o‘rnini bosadigan, mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan loyihalarni joylashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2023 yilda sanoat zonalaridagi ishga tushgan loyihalarda jami 4,9 trln.so‘mlik, shundan 513,2 mlrd.so‘mlik mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 45,4 mln. dollar importning oldi olinishiga erishildi.

Shu bilan birgalikda, Namangan viloyatida 25 ta korxonalar tomonidan 50 turdagi Yangi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Xususan, Quyosh batareyali ko‘cha yoritish chiroqlari, Tugmalar, Plastik ilgich (vishelka), Sun‘iy sintetik tola, Polietilen quvurlar, Sport kiyimlar va buyumlari, Yuqori kuchlanishdagi elektr tarmoqlari ehtiyot qismlari, Tibbiyot uchun bir martalik probirkalar va qo‘lqoplar, Elektrod, Gazoanalizatorlar, Avtomobillar uchun elektron butlovchi qismlari, Bolalar o‘yinchoqlari, Havo-moy sovutkichli kondensatorlar, Emallangan vanna va dush poddonlari, Yelimlar (silikat natriya), Maxsus texnikalar (motosikl), Avtomobillar uchun akkumulyatorlar, Bolalar tagliklari, Poyabzal tagliklari va boshqalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Natijada, 2023 yil yakuni bilan 80 ta loyihada jami 1,9 trln. so‘mlik mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va 2022 yilga nisbatan 135,1 foiz o‘shishi ta‘minlandi.

**Namangan viloyatida 2018-2023 yillarda mahalliy lashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi to‘g‘risida ma‘lumot**

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2018 yilga nisbatan
1.	Mahalliy lashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi	mlrd.so‘m	19,9	109,7	234,4	569,1	1374,6	1862,2	93,4 barobar
		mln.dollar	1,1	4,9	11,0	52,7	121,6	164,7	93,4 barobar
2.	Yangi turdagi mahsulot soni	birlik	7	9	12	20	23	25	3,2 barobar
3.	Loyiha soni	birlik	16	13	46	59	75	80	5 barobar
4.	Korxonalar soni	birlik	7	4	28	44	61	62	8,8 barobar

Viloyatning import mahsulotlari tahlil qilinganda, 2023 yilning 10 oyi davomida jami 509 mln.dollar mahsulotlar importi amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 80,6 mln.dollarga yoki 18,8 foizga ko‘paygan. Hududiy korxonalar tomonidan jami 289 turdagi 209 mln. dollarlik mahsulotlar importi amalga oshirilib, 2022 yil mos davriga nisbatan 4,3 mln. dollarga yoki 102,1 foizga ortgan. Bu o‘z navbatida imort o‘rnini bosuvichi, raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati yuqoriligidan dalolat bermoqda.

Ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish davlat iqtisodiyoti uchun har jihatdan foydalidir. Bu birinchi navbatda valyuta zaxiralarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, qo‘shimcha ish

o‘rinlari yaratish va tarmoqning jadal rivojlanishini ta‘minlaydi. Shuningdek, xarajatlarni kamaytirishga, buyumlarning tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini qisqartirishga, muhimi materiallarni yetkazib berish uchun zarur vaqtni tejab, ishlab chiqarishdagi uzilishlar xavfini bartaraf etadi.

Mamlakatimizda mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ichki imkoniyatlardan foydalanib, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi loyihalar evaziga mahsulot turlarini ko‘paytirish, import o‘rnini to‘ldirish bu kabi mahsulotlarni korxonaning o‘zida ishlab chiqarish lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, bugungi o‘zgaruvchan sharoitda iqtisodiyotimizning barqaror o‘shirishini ta‘minlashning eng samarali yo‘li – ichki imkoniyatlarni ishga solish, ya‘ni import bo‘layotgan tayyor mahsulotlarni yurtimizda ishlab chiqarish va mahalliy sanoatni yanada rivojlantirishdir. Bu borada sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirishni yanada kengaytirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

### REFERENCES

1. Кузнецов В.П., Вазьянский А.М. Локализация производства как инструмент повышения экономической эффективности организации / Вестник Череповецкого государственного университета.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi «O‘zbekiston-2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida PF-37-son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 17 sentabr kuni sanoatni jadal rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va ko‘lamini kengaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida bildirilgan.
4. Namangan viloyat hokimligining matbuot xizmati ma‘lumotlari asosida
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2022. – 137 b
6. Кузнецов В.П., Вазьянский А.М. Локализация производства как инструмент повышения экономической эффективности организации / Вестник Череповецкого государственного университета.
7. Elov D.A., Ochilov N.Ya. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish omillari va rivojlanish tamoyillari. Iqtisod va moliya ilmiy - amaliy jurnali. №8, 2013 - 47 b., Elov D.A., Ochilov N.Ya. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning xorij tajribasi. №10, 2013 - 45 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi «O‘zbekiston-2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida PF-37-son Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 17 sentabr kuni sanoatni jadal rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va ko‘lamini kengaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida bildirilgan.
10. Namangan viloyat hokimligining matbuot xizmati ma‘lumotlari asosida

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Namangan viloyati hokimligi Iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
12. Khakimova, M. Kh. (2021). USING THE “BRAINSTORMING” METHOD IN TEACHING SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS. *Bulletin of Science and Education* , (6-3 (109)), 56-61.
13. Kiyamov, A., Khakimova, M., Ochilova, M., Razzakov, T., & Begimkulov, F. (2023). Roller-combing machine for preparation of combs. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 390). EDP Sciences.
14. Juliev, M., Ng, W., Mondal, I., Begimkulov, D., Gafurova, L., Hakimova, M., ... & Saidova, M. (2023). Surface displacement detection using object-based image analysis, Tashkent region, Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 386). EDP Sciences.